

PEDAGOGIK MAHORAT

MS
2022



PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

Maxsus son

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2022

Nargiza RAFIYEVA. O‘zbek kitobot va miniatura san’ati	126
R.N.RAXIMOV, M.K.AKRAMOVA. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining vokal-xor malakalarini tarkib toptirish	129
Baxrom MADRIMOV. O‘quvchilarni darsdan tashqari tadbirlar jarayonida axloqiy-estetik tarbiyalash	132
Sanoqul DO‘STOV. Musiqani tinglab uni idrok etishning maqsadi va tarbiyaviy ahamiyati.....	135
Davron RO‘ZIYEV. Konsert namoyishiga tayyorgarlik faoliyati	139
Baxtiyor MUSTAFOYEV. Umumiy o‘rta ta‘lim tizimi islohotlarida musiqa madaniyati	143
To‘xtasin RAJABOV. Musiqa madaniyati darslarida xalq qo‘shiqlarining tarbiyaviy ahamiyati	146
Shoira NOROVA. Yosh avlodni musiqa san’ati orqali tarbiyalash yo‘llari	149
Ilhom QO‘SHAYEV. An’anaviy musiqiy merosni o‘rganishni metodik takomillashtirishga yo‘naltirilgan ta‘lim mazmuni	152
Ibrohim KAYUMOV. San’atning turlari va ularning tarbiyaviy ahamiyati	154
Sadritdin GULOV. O‘zbekiston maktablarida musiqa cholg‘ulariga yo‘naltirishning zamonaviy ilg‘or innovatsiyalari.....	157
Halim HASANOV. Vatanga sadoqat hissini shakllantirishda fanlararo aloqadorlik (musiqa fani misolida)	159
Shavkatjon KAMOLOV, Husniddin HIKMATOV. Talabalarda mustaqil ta‘limni tashkil etish.....	161
Сайфулла АБДУЛЛАЕВ. Краткосрочные рисунки как средство формирования художественного воображения студентов в процессе рисования по памяти и представлению	163
To‘lqinjon Muxamedov. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy madaniyatni tanishtirish orqali fuqarolik shaxsini shakllantirish	167
O‘g‘iloy RAMAZONOVA, Ferangiz Odilova. O‘n ikki maqom tizimi va uning o‘ziga xos xususiyatlari ..	169
Malohat RAXMATOVA, Gulbahor ISTAMOVA. “Shashmaqom” nasr (ashula bo‘limining ikkinchi guruh sho‘balarini) o‘rgatish yo‘llari.....	171
Olimxo‘ja KARIMOV, Rahim XODJAYEV. Musiqa to‘garaklarida o‘quvchilarni skripka cholg‘u sozi bilan tanishtirish.....	173
Ma‘rifat UMUROVA. Maktabgacha ta‘lim muassasasida o‘yin bola tarbiyasining muhim vositasi.....	176
Shohruh SHODIYEV. Qashqar rubobida xalq kuylarini notalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	181
Azamat Rajabov. Markaziy Osiyoda musiqa ilmiga asos solgan olim va mutafakkirlar ishlarining tahlili ..	186
Рустам АТАМУРАДОВ. Формирование умений и навыков по школьному репертуару учителей музыки в общеобразовательной школе	188
Sherzod SHAMSIYEV, Dilbar MO‘SINOVA. Xor uchun yozilgan musiqa asarini tahlil qilish yo‘llari.....	191
Сухроб АБДУЛЛАЕВ. Формы организации научно – исследовательской и творческой деятельности студентов направления образования “Изобразительное искусство и инженерная графика”.....	193
Olimxo‘ja KARIMOV, Gulmira QUTLIYEVA. O‘quvchilarda vokal-xor malakalarini shakllantirish.....	195
Olimxo‘ja KARIMOV, Sitorabonu SHARIPOVA. Qo‘shiq va kuylar orqali komil inson shaxsini tarbiyalashning nazariy asoslari.....	198
Qobil QORIYEV. O‘zbek musiqa san’atining qadimiy ildizlari tarixidan	200
Abror AZIMOV. Zardushtiy va buddaviylar davri ommaviy musiqa va badiiy san’at tarixi va turlari	202
Said BOLTAZODA. Avesto davrining xorazm va sug‘diyona musiqa maktablari madaniyatida ijrochilik uslublari.....	204
Davron RO‘ZIYEV, Jamshid NIYOZOV. Maqomga ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarini shashmaqomning nasr bo‘limi vositasida axloqiy estetik tarbiyalash.....	206
Sanoqul DO‘STOV, Zilola RUZIYEVA. O‘quvchilarning musiqiy tafakkurini shakllantirishda milliy dutor cholg‘usining o‘rni va tarbiyaviy ahamiyati	208
Mehriniso Begmurodova. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida musiqa terapiya mashqlarining ahamiyati ...	210
Zafarbek YAQUBOV. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi ma‘naviyatini rivojlantirishda Xorazm xalq dostonlarining o‘rni	212
Umidbek BOLTAIYEV. Milliy musiqiy meros-o‘quvchilar estetik tarbiya vositasi.....	214
Uchqun BOLIYEV. Ma‘naviy axloqiy tarbiyaga kompleks yondashish	217
Maqsuda AXMEDOVA. Musiqiy tasavvurlarni shakllantirishda pedagogika va psixologiya fanining muhim vazifalari	219
Adilshoda TO‘YMURODOV. Innovatsion texnologiyalardan foydalanishda o‘quvchining ijodkorligi.....	222
Hafiza HAMIDOVA. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini folklor qo‘shiqlari vositasida tarbiyalashda alla qo‘shig‘ining ahamiyati.....	225
Mirshod XODJIYEV. Buxorcha va mavrigi turkumi haqida.....	228
Firangiz SHUKUROVA. Buxoro folklor qo‘shiqlarining maktab darsliklaridagi o‘rni	230
Shaxnoza YAXYOYEVA. Buxoro shashmaqomining yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati	233

Malohat RAXMATOVA
Buxoro davlat universiteti
musiqa ta'limi kafedrası o'qituvchisi

Gulbahor ISTAMOVA
Cholg'u ijrochiligi yo'nalishi
3-bosqich talabasi

“SHASHMAQOM” NASR (ASHULA BO'LIMINING IKKINCHI GURUH SHO'BALARINI) O'RGATISH YO'LLARI

Maqolamizda ta'kidlaganimizdek, “Shashmaqom” ma'lum chegarada to'xtab qolmay, qo'llanish doirasini kengaytirdi. Savt va Mo'g'ul tipidagi bir qancha bo'limlar tuzilib, ular shashmaqom xonandalik bo'limining ikkinchi bo'limi guruhiga kiritilgan. “Shashmaqom” an'analarini davom ettirayotgan sozanda va bastakorlarning “Shashmaqom” bo'limlari asosida ikkinchi bo'limlari yaratilib, unga kiritilgan. Bu fikrni “Shashmaqom” ikkinchi bo'limi ohangdor guruhi ham tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: nafosat, kamol, madaniyat, tarbiya, mumtoz, an'anaviy musiqa, ijro jarayoni, san'at, madaniyat.

Как мы отмечали в нашей статье, “Шашмаком” не остановился на определенном пределе, а расширил сферу своего применения. Было создано несколько подразделений савтского и монгольского типов, которые вошли в группу подразделений второй части шашмакомного певческого отдела. По словам музыкантов и композиторов, продолжающих традиции “Шашмакома”, в последнее время на основе разделов “Шашмакома” созданы и включены в него разделы второй части вокальной части. Это мнение подтверждает и мелодическая группа второго отделения вокального отделения “Шашмаком”.

Ключевые слова: деликатность, совершенство, культура, воспитание, классическая, традиционная музыка, исполнительский процесс, искусство, культура.

As we noted in our article, “Shashmakom” did not stop at a certain limit, but expanded the scope of its application. Several divisions of the Savt and Mongolian types were created, which were included in the group of divisions of the second part of the shashmakom singing department. According to the musicians and composers who continue the traditions of “Shashmaqom”, recently, on the basis of the sections of “Shashmaqom”, sections of the second part of the vocal part have been created and included in it. This opinion is confirmed by the melodic group of the second division of the vocal division “Shashmakom”.

Key words: delicacy, perfection, culture, education, classical, traditional music, performing process, art, culture.

Kirish. Savt va Mo'g'ulcha kabi sho'balari “Shashmaqom” ashula bo'limining birinchi qismiga kirgan sho'balari asosida yaratilgan. “Shashmaqom” ashula bo'limining ikkinchi qismiga kirgan sho'balarning hammasi cholg'u muqaddimasi bilan boshlanadi. Chunki ular birinchi bo'lim sho'balari kabi birin-ketin ijro etilmaydi. Savt va Mo'g'ulcha tipidagi sho'balari mustaqil ravishda o'z shaxobchalari bilan birlikda birin-ketin ijro etiladi. Ikkinchi qismiga kirgan sho'balari orasida savtlar har bir maqomda: Buzrukda – Savti Sarvinoz, Rostda - Savti Ushshoq, Savti-Sabo, Savti Kalon; Navoda – Savti Navo, Dugohda Savti Chorgoh deyiladi. Ular Segoh va Iroqda uchramaydi.

Asosiy qism. Savt arabcha so'z bo'lib, “ohang” va “musiqa” tovushi ma'nolarini anglatadi. Savt tayyor kuy yoki ashulaga taqlid qilib ma'lum bastakorlik qoidalari asosidagi javob tariqasida yaratiladigan musiqa asiridir. Bu qoidaga binoan asarning ishlanish uslubida uning qiyofasi, lad asosi, kuy elementlari, doira usuli birligi hal etuvchi omillardir. G'azallarni yaratishda nazirago'ylik an'anaviy bo'lganidek, Savtlar maqomlarning asosiy sho'balari nazira qilingan va ular negizida yuzaga kelganligi ma'lum.

Masalan, Nasri Ushshoq-Savti Ushshoq, Navro'zi Sabo-Savti Sabo, Nasri Chorgoh-Savti Chorgoh kabi. Lekin savtlarning kuy mavzusi butunlay boshqachadir. Ular “javob” tariqasida yozilgan asarlar bo'lsa ham lad asosi tarkibiy elementlari, ya'ni namudlari o'zlari mansub bo'lgan maqomlarga mos bo'lsa-da, ularning kuy mavzusi boshlanishdagi qismlari esa o'zlarining otdosh sho'balaridan butunlay farq etishi ham mumkin.

Savtlarning takt-ritm o'lchovi besh chorak bo'lib, Savtlar bir xil ya'ni hajazi musammani solim vaznidagi she'rlar bilan ijro etiladi:

“Mafoiylun – mafoiylun - mafoiylun-mafoiylun”.

V - - - V - - - V - - - V - - -

Savtlar vazmin va og'irroq doira usulida ijro etiladigan juda yoqimli va ohangdor ashulalardir. Savtlarning qiyofasi maqomlarning asosiy sho'balardagi kabi ancha murakkab va yirik shakldagi

ashulalardir. Ulardagi kuy harakati maqomlarning boshqa yirik sho‘balaridagi singari pastki pardalardan boshlanib, bir necha ashula xatlari orqali miyon parda yoki dunasrlar orqali sekin-asta pog‘onadan-pog‘onaga ko‘tarilib rivojlana boradi va o‘zlariga mos keladigan namudlar bilan yana avjga tomon rivojlana boradi. Ulardan so‘ng o‘rta pardadagi ashula jumalari vositasi bilan o‘zining dastlabki nuqtasiga qaytadi.

Savtlarning kuy qiyofasida bo‘lganidek, ular tarkibidagi namudlar ham turlichadir. Masalan, Savti Sarvinozda – Namudi Ushshoq va Turk: Savti Ushshoqda – Namudi Uzzol, Namudi Muxayyari Chorgoh; Savti Kalon va Savti Saboda Zebo pari; Savti Navo kuy mavzui Navo maqomining boshqa sho‘balariga o‘xshamaydi. Balki o‘ziga xos bo‘lgani uchun Turk bilan Namudi Navoning kelishi ham Savtlarda umumiy qoidadan mustasnodir.

Muhokamalar va natijalar. Savtlarning ashula kuy harakati jihatidan o‘ziga xos originalliklari bilan maqomlarning boshqa sho‘balaridan ajralib turadi.

Savtlar ijro etilgandan keyin ularning ritmik va melodik variatsiyalari bo‘lgan Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Ufor nomli shoxobchalariga o‘tiladi. Talqincha ritm takt o‘lchovi, Qashqarcha takt ritm o‘lchovi. O‘zbek xalqlari klassik adabiyotida “Soqiynoma” janri ma‘lum darajada o‘rin egallab kelgan.

Yirik shoirlarning devonlaridan “Soqiynoma”lar alohida qism sifatida keladi. Shunday she‘rlardan ijro etiladigan ashula yo‘llari esa “Soqiynoma”lar tarzida yuzaga kelgan.

So‘ngi davrlarda esa “Soqiynoma”lar shu o‘lchovga mos keladigan boshqa g‘azallar bilan ham aytib kelingan. Savtlar o‘z tarkibidagi Uforilar bilan tamomlanadi. Uforilar ikki xil usulda ijro etiladi. Takt -ritm o‘lchovi yoki “Shashmaqom” ashula bo‘limining ikkinchi qismiga kirgan sho‘balarning shoxobchalari Talqincha, qashqarcha, Soqiynoma va Uforlar doyra usuliga moslanib ishlangan asosiy ashula yo‘lining ma‘lum variatsiyasidir.

“Chapandoz” chap tushadigan, ya‘ni Talqin usulining teskarisi, Talqin bo‘lsa, Chapandozi bo‘ladi. “Shashmaqom”dagi “Mo‘g‘ulcha” nomlarida Mo‘g‘ullar musiqasida mashhur bo‘lgan doira usullariga nisbatan berilgan. Savt bilan mo‘g‘ulcha orasidagi farq Savtga nisbatan Mo‘g‘ulcha tezroq usuldadir.

Mo‘g‘ulchalar Rost va Iroq maqomlarida uchramaydi.

Dugohning Mo‘g‘ulchasi tarkibida boshqa sho‘balarda uchramaydigan va Talqin usulida ijro etiladigan Qalandariy va Samandariy nomlari bilan mashhur bo‘lgan shoxobchalar mavjud. Xuddi shuningdek, mo‘g‘ulchai Segohda xalq orasida Karimqulbegi nomi bilan mashhur bo‘lgan hamda Talqin doira usulida ijro etiladigan Nimchuponiy shoxobchasini ham uchratish mumkin.

Mo‘g‘ulchalar o‘zining kuy tuzilishi va harakati nuqtayi nazaridan nasrlarga o‘xshamaydi. Balki ko‘proq Saraxbor yo‘llarini eslatadi.

Mo‘g‘ulchalarda namudlar tarkibi ham turlichadir. Shunisi xarakterliki, maqomlarning Mo‘g‘ulcha, Savt kabi sho‘balarda uchraydigan namudlar ularning Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma va Uforlarida ham bo‘lishi shart.

Mo‘g‘ilchalar va ularga kirgan shoxobchalarning kuy tuzilishi murakkab bo‘lsa-da, o‘zining yoqimliliigi, turli tuman bo‘lishliliigi bilan shinavandalarga juda ham manzur bo‘lib kelgan. Mo‘g‘ulchalar original asarlar bo‘lib, Savtlar kabi maqomlarning boshqa sho‘balari orasida eng mashhurlaridan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda maqom namunalari turkumida doira usullarining har xil bo‘lishi ularning shoxobchalari kuy tuzilishiga ham ta‘sir etadi. Kuylarning ta‘sir etish xususiyatlari ham butunlay o‘zgarib ketadi, variantlar tarzidagi kuylar bir-biridan tubdan farq qiladi. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, maqom yo‘llarining yuzaga kelishi o‘tmishdagi bastakorlik an‘analari bilan bog‘liq, uning mahsulidir. Maqom namunalari maqom yo‘llarining xalq orasida naqadar keng tarqalganligidan dalolat beradi hamda maqom yo‘llarini targ‘ib qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Adabiyotlar

1. Ibrohimov O.A. Maqom asoslari. –Toshkent: “Turon-Iqbol”, 2018.
2. Rajabov Ishoq. Maqom asoslari. –Toshkent, 1992.
3. Rahmatova R M, Durdon T. Theory and methods of musical education of children. Проблемы педагогики, 52-53, 2020.
4. Рахматова М.О., Холикова М.Б. Механизм развития музыкальных способностей учащихся музыкальных и художественных школ. Academy, 63-65, 2021.
5. Norova Shoir. O‘zbek an‘anaviy qo‘shiqchiligida ustoz-shogird ijro yo‘llari. Pedagogik mahorat. Maxsus son. 2021. 23-24-b.